

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“MUSTAQILLIK SHAROITIDA KOMIL INSON G‘OYASI”

mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: kat o‘q. I.Sattarova

Talaba: BTSTI yo‘nalishi 4-kurs talabasi

G.Zayniddinova

ANDIJON – 2013

MAVZU: MUSTAQILLIK SHAROITIDA KOMIL INSON G‘OYASI

KIRISH

1. Ta’lim inson g‘oyasi – asosiy pedagogik muammo sifatida
2. O‘tmish allomalarning ijodiy merosida komil inson g‘oyasi
3. Komil insonni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari
4. Ma’naviy-tarbiyaviy ishlar mazmunida komil insonni tarbiyasi masalalari

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, insonga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi, unga g‘amxo‘rlik qilish, uning manfaatlari to‘g‘risida qayg‘urish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish davlatning ustuvor siyosatiga, kundalik faoliyatiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta’kidlanganidek, “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”.

2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb e‘lon qilinishi respublikamizda yoshlarga bo‘lgan e‘tiborning yaqqol dalili bo‘ldi. Modomiki shunday ekan, hozirgi dolzarb vazifa inson to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, yosh avlodni yetuk shaxs, zamonamiz talabiga javob beradigan, bilimdon, yuksak ma’naviyatli, e’tiqodi mustahkam, irodasi kuchli, xalq, Vatan uchun qayg‘uradigan komil inson qilib tarbiyalash va voyaga yetkazishdir. Zero, davlatimiz rahbari I.Karimov ta’kidlaganidek, endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa “...milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning ma’no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”. Moziyda yashab o‘tgan mutafakkirlarning inson va uni yashashdan maqsadi, mukammal jamiyat, odil va ma’rifatli shoh, komil inson haqidagi qimmatli fikrlari hozirgacha o‘z qadrini yo‘qotmasdan, insoniyatga xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi komil inson tarbiyasining mazmun-mohiyati, maqsad-vazifalari, yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonlarining uzviy bog‘liqligi, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash usullari va xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish hamda bo‘lajak pedagogik faoliyatda ushbu bilimlardan keng foydalanish, tajribalarni amaliyotda faol tadbqiq etishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

1. Ta'lim inson g'oyasi – asosiy pedagogik muammo sifatida

Komil inson – o'zida ma'naviy-axloqiy hislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, yuksak iste'dodli va intellektual salohiyatga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan ijodkor shaxsdir.

Ta'limni insonparvarlashtirish deganda yosh avlodda boy estetik hissiyot, yuksak ma'naviyat, madaniy va ijodiy tafakkurni shakllantirish va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning ustivor yo'nalishlarini o'z ichiga olgan ta'lim-tarbiya dasturlarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Bunda, ta'lim oluvchida mustaqil shaxsni tarbiyalash, unda bilim olish madaniyatini shakllantirish, shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash hamda shaxsiy g'urur, ishonch kabi hislatlarni hosil qilishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Talaba-yoshlarda insonparvarlik fazilatlarini, eng avvalo ularning o'zidan katta yoshdagilar – ota-ona, yaqinlari, o'qituvchilar va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlari orqali shakllanib, so'ng tengqurlari bilan munosabatlarda takomillashadi. Shu ma'noda insonparvarlik shaxs ta'rifi va tavsifining bosh mezonini sifatida, uning shaxs ruhiyatida vujudga kelish, shakllanish va taraqqiy etish jarayonlari va qonuniyatlarini o'rganish yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, ularning har tomonlama uyg'un taraqqiy etishlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda uzluksiz ta'limni ham insonparvarlashtirish muhim vazifadir.

Komil insonni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo'yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylashtirishdan iborat bo'lib, bo'lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustivor bo'lishini ta'minlashga qaratiladi.

Tarbiyaviy ishlar rejalari gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta'lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya'ni fizika, kimyo, biologiya, matematika, shuningdek, texnika fanlari va umuman talim tizimida o'tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma'naviy-ahloqiy ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e'tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko'rsatib berishni, talaba yoshlarni o'qitish orqali ma'naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

O'quv dasturlarining, darslik va qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda, ta'limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tayyorlashda ta'limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya'ni yosh mutaxassislarning ma'naviy-ahloqiy

jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlashga katta e'tibor berilishi zarur.

Hozirgi kun fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur'atlari tobora jadallashmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Shaxsning ma'naviy, ruhiy kamoloti ta'minlanmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama bo'ladi va kutilgan natijani bermaydi. Ruhiy ibtido yoshlar qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, ularning umuman millatning ruhiy-ma'naviy rostdanlashiga yordam berishi kerak.

Komil insonni shakllantirish gumanitar ta'lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkalanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomus, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlik, fidoiylilik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarini tarbiyalash maorif va oliy ta'lim tizimida ustivor ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, siyosatda, iqtisodda va ma'naviyat sohasidagi islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq. Barcha talaba-ta'lim oluvchilarni Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralariining mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhbatlarini, uchrashuvlar tashkil etish-bular hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi.

O'quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan turli xil to'garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasb-hunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg'un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir.

Tarbiyaviy maqsad – aniq o'lchamli ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g'oya, yo'nalish (aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi va boshqalar) ajralib turadi. Tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida pedagogning vazifasi professor-o'qituvchilarning

murabbiylik faoliyatini asosiy maqsadga yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta'sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashxis qo'yishdan iboratdir.

Komil inson g'oyasi – shaxsni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, Vatan mustaqilligi mustahkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyatli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar majmuasidir. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – Davlat va jamiyatga xizmat qiluvchi, Vatanga fidoiy, ahloqiy barkamol intellektual kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

2. O'tmish allomalarning ijodiy merosida komil inson g'oyasi

Dunyo tamaddunida mashhur nom qozongan, benazir alloma Abu Ali ibn Sino (Avitsenna)ning to'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir.

Abu Ali – arabchadan tarjima qilinganda Alining otasi ma'nosini anglatadi. Arablarda shunday udum bor: kishini uning to'ng'ich o'g'lining ismi bilan ataydilar. Bunga kuniya (laqab) deyiladi. Kuniya musulmon Sharqida kishining o'z ismidan oldin qo'yib aytilgan. Agar ism xalifa Alining o'g'illaridan biri kabi – Husayn yoki Hasan – bo'lsa, uning kuniyasi Abu Ali bo'lgan. Garchand, Ibn Sinoning na o'z oilasi va na bolalari bo'lmagan bo'lsada, uni bo'lajak Alining otasi deb atashgan.

Husayn esa – allomaning o'z ismi. Ibn Abdulloh Abdullohning o'g'li (Husaynning otasi Abdulloh edi). Ibn Ali (Alining o'g'li) – bobosining ismi; ibn Hasan (Hasanning o'g'li) – katta bobosining ismi.

Ibn Sino – taxallusi (Sino doriy tilida gavharlarni teshuvchi ma'nosini anglatadi). Qadimgi yahudiylar tilida Ibn Sinoni Aben Sina deb ataganlar, keyinchalik esa bu nom Ovrupoda juda keng tarqalib, Avetsenna sifatida ommalashib ketgan (lotincha - AVICENNA).

Buyuk ne'mat mustaqillik sharofati ila jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning boy va serqirra ilmiy merosi atroflicha o'rganila boshlandi.

Ibn Sinoning oqil davlat arbobi, iste'dodli shoir va adabiyotshunos, nafis musiqashunos va fizik, o'tkir matematik va astronom, kuchli ximik va geograf, mohir ruhshunos va faylasuf bo'lganligi uning yaratgan ilmiy-adabiy merosidan ma'lumdir. Ibn Sino mutolaasining boyligi, ilmning mashaqqat va zahmatiga chidamliligi va g'ayrati bilan o'tmishdoshlarini lol qoldirgan. Uning nodir va o'lmas asarlari nafaqat Sharqda balki G'arbda ham mashhurdir.

(Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) – zamondosh olimlar tomonidan “Shayx ar-Rais” (olimlar yo'lboshchisi, ustози), g'arbda – “Faylasuflar sultoni” va “Shifokorlar podshohi” nomi bilan shuhrat qozongan, X-XI asrda musulmon Sharqida yetishib chiqqan buyuk qomusiy olim, haqim va faylasufdir. Uning nomi barcha davrlarning eng ko'zga ko'ringan, ma'lum va mashhur

olimlari, faylasuflari va ma'rifatparvarlari ichida ham eng yorqinidir. Ibn Sinoning ijodi bir necha asrlar mobaynida Sharq va Ovro'po fani hamda madaniyatiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan.

O'rta asrlarga oid miniatyuralarda Ibn Sinoni haqli ravishda Aristotel, Platon, Ptolemey, Gippokrat, Galen, Yevklid kabi fanning buyuk namoyondalari bilan bir qatorda tasvirlaganlar.

Jahon Tinchlik Kongressi allomani shunday tavsiflaydi: "Genial insonlarning qoldirgan izlarini asrlar osha o'zida saqlab kelayotgan fan, adabiyot va san'atning buyuk durdonalari bor-ki, ular barcha xalqlar uchun ham umumbashariy xazinadir. Bu madaniy meros insoniyat uchun bitmas-tuganmas manba hisoblanadi va uning oldida umuminsoniy kelishuv va hamkorlik istiqbollari ochib beradi. Ibn Sino o'zining ijodi hamda yaratgan asarlarining ahamiyati jihatidan butun insoniyatga tegishlidir. Uning faoliyati haqiqat va aql-idrok talablariga asoslangan edi".

Ibn Sino o'zining butun hayoti davomida tinmasdan izlandi, mehnat qildi. "Men mehnat bilangina tirikman, - deb ta'kidlar edi u, - qolganlari esa faqat kun kechirishgina xolos". Ilmu-fan Ibn Sinoning butun borlig'ini qamrab olgan, alloma unga o'zini butunlay baxshida etgan edi.

Olimning ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va tabiiy qarashlari juda serqirradir. Qaysi fan sohasiga qalam urmasin, unda o'z zikrini qoldira olgan. Mutafakkir o'z asarlarida ilm va odob-axloq uyg'unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o'zaro do'stligi hamkorligi, rahbarning burchi va mas'uliyati to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar" to'g'risida fikr yuritib dunyoda nom qoldirgan olimlarni eslatib, buyuk olim Ibn Sino haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashhur alloma Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida "Meditsina", "Sog'lom turmush tarzi" degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor".

Paduan universitetining professori Ferrarining darsligida (1471) Ibn Sinoning nomidan 3000 marotaba sitata keltirilgan bo'lsa, Roziy va Galendan – 500 marta, Gippokratdan esa – 140 marta keltirilgan. Shuning o'zi Ibn Sinoning Ovro'poda naqadar mashhur ekanligining dalili bo'la oladi.

Uyg'onish davrining buyuk dahosi Leonardo da Vinchi ham Ibn Sinoning asarlari bilan tanish bo'lgan va ularni o'rgangan. Uning mashhur zamondoshi Mikelanjelo esa: "Boshqalarga

ergashib haq bo'lgandan ko'ra, nohaq bo'lsa ham Galen va Avitsennaga ergashgan ma'qulroqdir", - degan edi.

Tarixchi J.Sarton o'z zavqini yashira olmasdan: "Avitsenna barcha davr va xalqlarning eng mashhur kishilaridan biri hamda eng taniqli musulmon olimidir", - deb xitob qilgan.

Ko'zga ko'ringan sharqshunos Ye.E.Bertelsning ta'kidlashicha, g'arbiy Ovro'po fanining ko'pgina yutuqlari Sinoning asarlariga bog'liq bo'lgan .

Yetakchi ibnsinoshunoslardan biri, akademik V.N.Ternovskiy yozadi: "Hozirda Ibn Sino insoniyat oldida tolmas va qizg'in tadqiqotchi, porloq shifokor, ilhomboxsh mutafakkir siymosida namoyon bo'ladi. Uning nomi va ishlari buyuk gumanizm ramzi sifatida insonlar qalbida mangu yashaydi. Uning asrlar zulmati osha insonlarning sog'lig'i uchun olib borgan buyuk kurashini bizning zamonamizning shifokorlari davom ettirmoqdalar".

Xalqaro tibbiyot tarixi Akademiyasining haqiqiy a'zosi, Rossiya tibbiyot fanlari akademiyasining akademigi B.D.Petrovning yozishicha: "Ovro'poda o'rta asrlarda bilimlarining keng qamrovligi, iste'dodi, mehnatsevarligi va buyuk ijodiy samaralari jihatidan hech kimni unga tenglashtirib bo'lmaydi".

Abu Ali ibn Sinoning xijriy sana (musulmon kalendari) bo'yicha 1000 yillik yubileyi 1954 yili Tehronda (Eron) va Jahon tinchlik Kongressida o'tkazilgan. Shu vaqtda allomaning hoki eski maqbaradan yangisi (Hamadon)ga ko'chirib o'tkazilgan.

Ibn Sino tabiiy fanlar, mineralogiya, kimyo, botanika, astronomiya, matematika, tibbiyot, adabiyot, musiqa rivojiga beqiyos hissa qo'shgani bois uning yaratgan asarlari dunyo tillariga – nemis, ingliz, rus, arab, ispan, italyan, fransuz kabi tillarga tarjima qilingan.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimizda va xorijda maxsus ilmiy yo'nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi, jumladan, O'zbekiston FASHI da alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud.

Yevropa olimlaridan Ye.Bishmann, Yu.Russka Karra devo, X.Korbin, Kruz Xermandez, L.Garde, A.Guashon, J.Saliba, arab, eron, turk olimlaridan M.U.Najotiy, A.N.Nodir, Yahyo Mahdaviy, Umar Farruh, F.Rahmon, M.Muso, M.Shoxvardiy ma'lum hissa qo'shganlar.

Rus olimlaridan Ye.E.Bertels, A.Ya.Borisov, S.I.Grigoryal, B.A.Petrov, V.N.Ternovekiy, A.V.Sagadeev, tojik olimlaridan S.Ayniy, M.Dinorshoev, T.Mardonov, Yu.Nuralievlar bu yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qilganlar.

Yurtimizda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S.Mirzaev, A.Murodov, U.I.Karimov, A.Semyonov, Sh.Shoislomov, H.Hikmatullaevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar.

T.N. Qori-Niyoziy, I.Mo'minov, M.M.Xayrullaev, M.N.Boltaev, B.Axmedov,

A.Rasulov, U.Karimov, A.Irisov, A.Axmedov, N.Majidov, V.K. Jumaev, M.Barotovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan.

“Biz mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband singari aziz avliyolarimiz, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarimiz asarlarini tom ma’noda qaytadan kashf etdik. Lekin bu ulug‘ ajdodlarimizning jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga qo‘shgan buyuk hissasini yoshlarimiz biladimi? Albatta, biladi. Ammo, afsuski, aksariyat hollarda umumiy, yuzaki tarzda b‘ladi”.

Darhaqiqat, buyuk siymolarimiz tomonidan yaratilgan noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o‘rganib, uning ma‘no-mohiyatini yoshlarimizga yetkazish masalasi barchamizning, ayniqsa ziyolilarimizning asosiy va muqaddas vazifalaridan biridir.

Buyuk ajdodlarimizning bag‘rikengligi, ular dunyoqarashida dunyoviy va diniy ilmlarning mushtarakligi, diyonat va adolatpeshaligi, sabr-qanoatliligi barchamiz uchun namuna-ibratdir.

Hazrat Navoiyning boy badiiy ijodi, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari, xususan, komil inson, mukammal jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalari adabiyotshunos olimlar, pedagog va faylasuflarning e‘tiborini doimo o‘ziga tortib kelgan. N.Mallaev Alisher Navoiyning ijodini, xususan, “Xamsa”ga kirgan dostonlarini tahlil qilar ekan, Navoiyning “din va tasavvufga tanqid” yondashganligini, ular Navoiy “ijodi uchun asosiy, yetakchi faktor bo‘lmaganini” qayd qiladi.

Mustaqillikdan so‘ng Alisher Navoiyning ijodiy merosini chuqur va har tomonlama o‘rganish, unga yangicha yondashish boshlandi. Bu yondashishlar orasida Navoiy asarlaridagi komil inson g‘oyasini qanday tahlil qilish va uni qaysi uslubni qo‘llab yoritish masalasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu mavzu to‘g‘risida oxirgi yillarda turkum maqolalar nashr qilindi, bu esa komil inson g‘oyasini tadqiq qilish hozirgi vaqtda g‘oyat dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shuni aytish o‘rinliki, hazrat Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma‘rifat, tabiat va insonni sevisht, ularni e‘zozlash, ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi g‘oyalardan unumli foydalandi. Bu g‘oyalar mutafakkirning g‘azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga singib ketgan.

Biz ilmiy adabiyotlarda aytilayotgan “Navoiy tasavvufning nazariy va amaliy jihatlar bilan maxsus shug‘ullanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan”, degan fikr tarafdorimiz. Shu munosabat bilan Sultonmurod Olimning garchi u tasavvuf talablarini bajarib umrguzaronlik qilgan bo‘lsa ham, uni xuddi Hamadoni, G‘ijduvoni, Yassaviy va boshqalar kabi tom ma‘nodagi mutasavvif deb bo‘lmaydi, degan fikriga qo‘shilamiz. Zero, Navoiy hazratlari

“rasman murid tushgan bo‘lsa ham, xonaqohda o‘tirib shayxlik qilmagan, atrofiga murid to‘plamagan, maxsus riyoziyat bosqichlarini o‘tamagan, xilvatga kirib, chilla o‘tirmagan edi”.

Bizning fikrimizcha, Navoiy va uning komil inson to‘g‘risidagi g‘oyalarini faqat tasavvuf qobig‘ida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Uning dunyoqarashiga, komil inson konsepsiyasiga ilk o‘rta asr mutafakkirlarining dunyoviylik bilan yo‘g‘rilgan qarashlari ham samarali ta’sir ko‘rsatgan. Navoiy Uyg‘onish davrining ulug‘ donishmandi va insonparvar shoiri edi.

O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrining yorqin vakili, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy 1441 yil Hirotida tavallud topadi. Yoshligidanoq adabiyotga mehr qo‘yib, she’rlar yoza boshlaydi va 15 yoshidan shoir sifatida taniladi. Alloma “Foniy” va “Navoiy” taxalluslarida ijod qiladi, hayoti davomida ko‘plab g‘azal, ruboiy, doston, tazkiralarni yozadi.

Navoiy yashagan davrni buyuk sohibqiron Amir Temur va boshqa temuriy sultonlarning faoliyatidan ayri holda yoritib bo‘lmaydi. Zero, Alisher Navoiy yashagan zamonda mamlakatda tinchlik-osoyishtalik va farovonlik hukm surishiga, madaniyat, ilm-fan va san’atning rivoj topishiga, shubhasiz, Amir Temur zamin yaratib ketdi, desak xato bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy yashagan davrning muhim xususiyati shundan iboratki, unda sof ijtimoiy-falsafiy fikrlar, axloq sohasida bitilgan risolalar kam uchraydi. Ijtimoiy-falsafiy va axloqiy fikrlar asosan shoirlarning nazmiy va nasriy asarlarida ramziy, allegorik yo‘l bilan aks ettiriladi. Bu davrda ko‘plab ijtimoiy-gumanistik xarakterdagi badiiy asarlar, g‘azal va ruboiylar, dostonlar vujudga keldi.

XV asrning ikkinchi yarmida turkiy tilni rivojlantirish muammosiga katta e’tibor berildi. Bunda Hirot hukmdori, Navoiyning do‘sti va maktabdoshi Husayn Boyqaroning xizmatlari ulkandir. U faqat davlatni boshqarish bilan mashg‘ul bo‘lmasdan, ilm-fan, madaniyat va san’at ravnaqiga ham katta hissa qo‘shdi, ijod ahliga homiylik qildi (masalan, u shoirlarga turkiy tilda asar yozish zarurligi haqida farmon beradi va h.k.). Ayni zamonda, u o‘zining shaxsiy ijodi, adabiy faoliyati bilan ham bu ishda juda yaqindan ishtirok etdi.

Bu davrda Lutfiy, Jomiy, Binoiy, Gadoiy, Atoiy, Hiloliy, Durbek, Ismat Buxoriy, Ahmad bin Xudoyd va boshqa mutafakkirlar badiiy ijod bilan shug‘ullanganlar.

XV asrni buyuk mutafakkir, shoir va mutasavvif, Alisher Navoiyning do‘sti Abdurahmon Jomiy(1414-1492)siz tasavvur qilish mumkin emas. Alisher Navoiy Jomiyning tavsiyasi bilan naqshbandiylik sulukiga e’tiqod qiladi, Jomiyning faqat do‘stgina emas, ustoz, pir hisoblaydi. Navoiy biror asar yozishdan oldin o‘z maslakdoshi - Jomiy bilan maslahatlashar, uning qimmatli fikr-mulohazalarini inobatga olar edi.

Bu davrda axloq va ta’lim-tarbiya muammolariga bag‘ishlangan maxsus asarlar yozgan olimlar orasida Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) ham alohida o‘rin egallaydi. U hazrat

Navoiyning bevosita homiyligi va yordamida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

San'at vakillari orasida "Sharq Rafaeli" nomiga sazovor bo'lgan, dunyoga mashhur Kamoliddin Behzod (1455-1537) Alisher Navoiyning homiyligida, ayniqsa, barakali ijod qilib, odamlar surati, tabiat manzaralarini tasvirlash, kitoblarni bezash bilan mashg'ul bo'ldi.

XV asrning ikkinchi yarmida ko'plab tarixiy asarlar ham yaratildi. Ular Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482)ning "Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi"), Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454 yilda vafot etgan) "Zafarnoma", Fasih Havofiyning (1375-1442) "Mujmai Fasihiy" ("Fasihiy to'plami"), Muyiniddin Isfizoriyning (1494 yilda vafot etgan) "Ravzat al-jannat fi avsof madinat al-Hirot" ("Hirot shahrining jannatmakon bog'lari"), Nizomiddin Shomiyning (XV asr) "Zafarnoma" risolasi va boshqalardir.

Bu davrda Xondamirning "Makorim ul-axloq" ("Oliyjanob xulqlar") asari yozilgan bo'lib, unda Alisher Navoiy yetuk shaxs, o'zida butun insoniy fazilatlarni mujassamlashtirgan komil inson sifatida tasvirlanadi. Asarda Navoiyning bag'rikengligi, kamtar va xokisorligi, saxovatpeshaligi, olimlarga homiyligi, yuksak aql egasi ekanligi, mehr-muruvvatligi, mamlakat obodonchiligi yo'lidagi sa'y-harakatlari, shoiru fuzalo va olimlarga g'amxo'rliqi, adolatparvarligi va boshqa insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan fazilatlari xususida fikr yuritiladi.

XV asr bilan bog'liq yana bir dolzarb masala – bu uning mustaqillik bilan chambarchas bog'liqligidir. Darhaqiqat, dastlab arablar istilosidan, keyinchalik esa mo'g'ullar asoratidan ozod bo'lgan O'rta Osiyoda ilm-fan, madaniyat yuksaldi, insonning erkin fikrlashi, aql-zakovati rivoji uchun keng imkoniyatlar tug'ildi.

Navoiy yashagan davr va siyosiy-ijtimoiy muhitning o'ziga xosligi shundaki, birinchidan, bu davrda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik fikrlar rivojlandi. Ikkinchidan, mamlakatni birlashtirish, ozod va obod qilish, bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor qaratildi. Uchinchidan, axloq va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan qator asarlar yaratilib, chop etildi. To'rtinchidan, Alisher Navoiy bizga ilmiy-adabiy, ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy va siyosiy sohada boy adabiy meros qoldirdi.

Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar og'zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag'ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan.

Komil insonni voyaga yetkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. U to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Komillik to'g'risidagi fikrlarning evolyutsiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo'lishi tuzumning xarakteri, ishlab chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-fan va madaniyatning rivojiga

bog'liq bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, taniqli tasavvufshunos Mahmud As'ad Jo'shonning fikriga qo'shilsa bo'ladi. U "Xulqlar o'zgaradimi?" – degan savolga, "o'zgaradi, faqat ta'lim-tarbiya tufayli", - deb javob beradi.

Komil inson g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning uchun komil inson masalasi o'tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, buddaviylik va islom ta'limotlarida komil inson g'oyasi yetakchi o'rinda turadi. Masalan, zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". Mana shu uchta qoidaga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblanadi.

Komil inson g'oyasi, ayniqsa, ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo mashshoyyun – peripatetik falsafasida o'zining yorqin ifodasini topdi.

Uyg'onish davrining buyuk faylasufi, "ikkinchi muallim" unvonini olgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950) komil inson to'g'risidagi g'oyalari uning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida o'z in'ikosini topdi.

Forobiy buyuk gumanist bo'lib, asarlarining markazida inson masalasi turadi. Uning fozil jamoa, davlat va uning boshlig'i faoliyati, fazilat, kamolot, baxt-saodat tushunchalari bevosita komil inson bilan uzviy bog'liqdir. Olimning fikr yuritishicha, inson tug'ilgandan fazilatlarni egallashga, yetuklik va kamolotga intiladi. "Har bir inson, - deb ta'kidlaydi alloma, - boshidan komil emas, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuur ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu jahd bilan intiladi. Hamma narsani idrok qilish insonni komillik va lazzat tomon boshlaydi. Insonning asl ruhiy kamoloti birinchi Haqni tanish orqali hosil bo'ladi va shuning o'zi, ayni vaqtda ma'rifat, baxt-saodat va lazzatning ham o'zidir".

Insonparvarlik, Forobiyning o'ylashicha, komillik va baxt-saodatga erishishning yuksak fazilatidir. Uning asarlari markazida insonning fikr-o'ylari, orzu-umidlari turadi. Uningcha, inson zoti barkamol bo'lish uchun boshqalar bilan muloqotda bo'lishi, ulardan yordam olishi, o'zi ham boshqalarga yordam berishi kerak.

Tasavvuf falsafasida komil inson masalasining asosini vahdati vujud ta'limoti tashkil etadi. Xudo, borliq va insonning birligi, insonning Alloh bilan birlashuvi, ontologik va gnoseologik masalalar vahdati vujud ta'limoti asosida talqin qilinadi.

Mutasavviflardan Boyazid Bistomiy (874 yilda vafot etgan), Ibn al-Arabiy (1165-1240), Aziziddin Muhammad Nasafiy (XIII asr), Abduqodir Jiliy (1417 yilda vafot etgan), Abdulqodir Giyloniy (1077-1166) va boshqalar komil inson ta'limotini har tomonlama asoslab berganlar. Ular asarlarida ilk bor "komil inson" atamasini qo'llab tasavvufiy nuqtai nazardan tahlil qilganlar.

Ibn al-Arabiy va Abduqodir Jiliylar inson ruhiga, ma'naviy-aqliy kamolotiga ko'proq e'tibor berdilar. Komil inson muammosi bilan XIII asrning mashhur mutasavvifi Aziziddin Muhammad Nasafiy shug'ullandi. Nasafiy o'zining "Zubdatul haqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog'i"), "Komil inson" nomli asarlarida ushbu masalaga nazariy-falsafiy jihatdan yondashdi.

Nasafiy dunyoqarashining markazida konkret inson turadi. U komillikka erishgan inson deganda, eng avvalo o'z-o'zini tanish va axloqni tushunadi. U kishilarning xulq-odobi, yuksak fazilatlarni egallashi, ilm-ma'rifatli bo'lishini komil insonning muhim belgisi, - deb e'tirof etadi.

Komil insonni tarbiyalash masalasi, ayniqsa hozirgi mustaqillik sharoitida dolzarb bo'lib turibdi. Buning boisi shuki, mustabid tuzumdan bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o'tilayotgan davrda ushbu masala yanada keskinroq qo'yilmoqda. Kishilararo munosabatda ba'zi qadriyatlarning qadrsizlana boshlaganligi, yoshlar orasida giyohvandlik, firibgarlik, ishyoqmaslik, tekinxo'rlik, o'g'rilik va boshqa yaramas illatlarning tez-tez sodir bo'lib turishi barkamol avlodni tarbiyalashga diqqat-e'tiborni qaratishni taqozo etmoqda. Komil inson masalasiga Prezident I.Karimovning asarlarida, nutq va ma'ruzalarida ham alohida e'tibor qaratilgan. Prezident komil insonga shunday ta'rif beradi: "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi".

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, qadimgi va ilk o'rta asrlardagi komil inson ta'limoti xalqning orzu-istaklari, fikr-o'ylarini aks ettirgan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad xalqni komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, turli aqida va toifaga mansub kishilarning ongu-shuuriga ilohiy xislatlar, imon-e'tiqod, hamida axloq, go'zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bo'lgan. Ikkinchidan, mutasavviflar tomonidan komil insonga xos xususiyatlarning ochib berilishi keyingi allomalar, faylasuflarning asarlari, qarash va g'oyalarining ma'naviy asosi bo'ldi. Uchinchidan, qadimgi va ilk o'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk donishmandlarning komil inson to'g'risidagi qarashlari, bu boradagi qimmatli fikrlari keyingi mutafakkirlar, xususan hazrat Navoiyning dunyoqarashiga ham katta ta'sir ko'rsatdi va axloqiy qarashlarining shakllanishida muhim g'oyaviy manba bo'lib xizmat qildi.

Inson yuksak fazilatlar va qadriyatlarni egallamasdan, o'zida insonga muhabbat tuyg'usini shakllantirmasdan, xulqli, odobli, insonparvar bo'lmasdan turib yetuk shaxs, komil inson bo'lib yetishuvi qiyin.

Mutafakkirning umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan gumanistik qarashlari islom falsafasidan oziqlangan bo'lib, alloma o'zining asarlarida uning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama rivojlantirgan.

Allomaning inson va insonparvarlik to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilishdan avval, uning Xudo va tabiatga munosabatiga to'xtalish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Uning fikricha, Xudo hamma mavjudotning ibtidosi, boshlang'ichini tashkil etadi. Dunyodagi hamma narsa o'tkinchi, vaqtinchalikdir, Xudo esa abadiy, nimaiki borliqda sodir bo'lsa, uning irodasi bilan amalga oshadi. Mutafakkirning fikr yuritishicha, "aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o'zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zeroki, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to'la anglay olmaydi". Shunga qaramasdan, Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug'ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi.

3. Komil insonni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari

Tarbiyaviy jarayonni ta'lim muassasasida shakllantirishda muhitni qayta shakllantirish va rivojlantirishni, «oil-ta'lim muassasasi-mahalla» hamda «tarbiya-muhit» uzviyligining mazmun va mohiyatan birligini mustahkam asoslarda ta'minlash kerak. Buning uchun milliy ma'naviyat tushunchasi, shaxs ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lmog'imiz zarur.

1. Milliy ma'naviyat tushunchasi. "Millat" so'zi tub mohiyat, o'zak, negiz degan ma'nolarni bildiradi. Milliy ma'naviyat esa "Millat" tushunchasi bilan bog'liq. "Millat" so'zi arab tilida uch ma'noni bildiradi: 1) din, mazhab; 2) ummat; 3) xalq, qavm. Millat so'zi Kur'oni Karimda ham qo'llanilgan. Qur'onda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, lekin o'z millatidan, qavmidan chiqib, boshqa millatga o'tib olishi esa katta bir gunoh deb ta'rif berilgan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar millatlar o'rtasidagi ma'naviy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi. Bu borada ma'naviyatni besh guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) ma'naviy qadriyatlar;
- 2) milliy ma'naviyat;
- 3) shaxs ma'naviyati;
- 4) mintaqaviy ma'naviyat;
- 5) umuminsoniy ma'naviyat.

Ma'naviy qadriyatlar – bu millatimiz barpo etilgandan to hozirgi kungacha bo'lgan barcha urf-odatlarimiz, andisha-yu g'ururimiz marosim va an'analarimiz, davom etib kelayotgan hunarmandchiligimiz, san'at asarlarimiz, yozma manbalaru yodgorliklarimiz, milliy inshootlarimiz boy merosimizdir. Milliy ma'naviyat esa – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan bag'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Milliy ma'naviyat boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qiladigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo, milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. Milliy ma'naviyat avvalo tarixiy xodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda bir yilda yoki o'n yilda mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat takomillashuvi uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shaxs ma'naviyati – bu har bir shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy holati, hatti-harakatlari munosabatlari boshqa qirralarini o'z ichiga oladi. Mintaqaviy ma'naviyat esa – muayyan geografik mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir.

Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatidagi yoki kengroq qaraydigan bo'lsak, Sharq va G'arb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin. Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyat – bu butun insoniyatga jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, xayolilik, hurmat bilan muomila qilish, ozodalik, xushchaqchaklik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insofililik, diyonatlilik, rostguylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insofililik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy ma'naviy hislatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy hislatlar qon-qonimizga singib ketgan. Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga kelmoqda. Yoshlar orasida asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bag'ritoshlik, qotillik, giyohvandlik, xudbinlik, maishiy buzulish kabi ma'naviy qiyofalar yuzaga kelib ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar allomalarimiz XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. A.Avloniyning ta'kidlashicha: "Tarbiya –bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir". Bu fikrlarning ahamiyati hozirgacha e'tibordan chetda qolgani yo'q. O'zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolot orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy buzulishning oldini olish mumkin.

Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma'naviy poklanish, o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Milliy tarbiya – millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarini, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir. Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni

rivojlantirish, meros, urf-odat va qadriyatlarni fan texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

2. Milliylik va umuminsoniylik. Umuminsoniy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmagan. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma'naviyat har doim qadimiy va navqiron bo'lib qolaveradi. Ular umumbashariy ma'naviyat deb ham yuritiladi.

Umuminsoniy ma'naviyat butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviyat uzoq va yaqin o'tmishda yaratilgan, hozirda esa ma'naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boyliklardir. Agarda milliy ma'naviyat bo'lmasa, umuminsoniy ma'naviyat ham bo'lmaydi. Umuminsoniy ma'naviyatsizlik esa, hozirgi zamon millatlarining jipsligi yo'q degani. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat esa hozirgi zamon ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida milliy va umuminsoniy ma'naviyatning ana shu dialektik bog'liqligini hisobga olishimiz davr talabidir.

3. Milliy ma'naviy tiklanishning mohiyati. Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Darhaqiqat o'z Vatanini sevmagan, vatanini tuprog'i uchun mas'ulligini his etmagan inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi. Shu yerda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. U ham bo'lsa "Milliy taraqqiyot" va "Milliy tiklanish" tushunchalarining mohiyati, mazmun va mezon masalalaridir.

Milliy taraqqiyot bu – evolyutsion xarakterga ega bo'lib, u pastdan yuqoriga tomon ko'tarilishdan iborat bo'lgan jarayondir. U millatning shakllanishi takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining ma'lum bir bosqichida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.

4. Ma'naviy-tarbiyaviy ishlar mazmunida komil insonni tarbiyasi masalalari

Mustaqilligimizdan keyin ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, unutilgan, kamsitilgan ma'naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklashga qaratilgan siyosatni amalga oshirilishini ko'rsatish hamda yosh avlodning milliy g'ururini yuksaltirishga, ularni vatanparvarlik, yurtparvarlik, baynalminallik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar mohiyatini ochib berish, ularni tashkil etish metodikasini o'rgatish ushbu fanning maqsadini tashkil etadi.

“Mustaqillik va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar” fanining oldiga qo'yilgan vazifalar qo'yidagilardan iborat:

- Ma'naviy - ma'rifiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini va uni yoshlar ongiga singdirishning ahamiyatini ochib berish;

- Uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning tarbiyaga ta'sirini, eski mafkuradan insonlarning halos bo'lishini tezlashtirish uchun barcha ishlarni tezlashtirish lozimligini ko'rsatish;

- Ma'naviy - ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini ko'rsatish;

- “Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi” ning qabul qilinishi bilan ma'naviy - ma'rifiy ishlarning yanada takomillashuvini ko'rsatish va bu masalada amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish;

- Ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligini, aloqadorligini, biri ikkinchisini inkor qilmasligini tarbiyaviy jarayonda ulardan umumlashgan holda foydalanish mumkinligini tushuntirish;

- Ma'naviy - ma'rifiy ishlarning, jarayonlarning mohiyati va asosiy yo'nalishlarini tahlil etish;

- Talaba - yoshlarni ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi bilan tanishtirish.

Shuning uchun ham ma'naviy - ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari qanday dastur va yo'nalish, qaysi ko'rsatma va qo'llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g'oyat muhim masala bo'lib turibdi.

Mustaqillik biz uchun jamiyat taraqqiyotining butunlay yangi davrini boshlab berdi. U O'zbekistonimizni, o'zbek millatini jahonga tanitdi. Milliy manfaatlarimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga, demokratik mezonlarga tamomila muvofiq yangi jamiyat qurishga kirishdik.

Milliy davlatchilik poydevori, uning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat islohotlarining bosh tashabbuskori, ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi. Konstitutsiyamiz davlatni qonuniy-huquqiy takomillashtirishning demokratik asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixiy milliy qadriyatlarimiz bilan yangidan tanishuv, ularni tiklash va boyitish har birimizda milliy o'zligimizni, tarixiy merosimizga e'tiqod va faxrlanish tuyg'ularini mustahkamladi. Biz ko'proq boy tariximiz, qadriyatlarimiz, an'analarimizni o'rgana boshladik. Odamlardagi boqimandalik, loqaydlik, mutelik ruhiyati o'rnini tadbirkorlik, ishbilarmonlik, fidoyilik egallay boshladi. Ularda Vatan oldidagi, el-yurt oldidagi o'z burchini e'zozlash tuyg'usi ancha kuchaydi.

Bozor munosabatlari, turli mulk shakllari mulkka munosabatimizni, mehnatimiz xarakterini o'zgartirib yubordi. Albatta, har qanday mamlakatda o'tish davri osonlikcha kechmaydi. U bir necha o'n yilliklarga cho'ziladi. Juda ko'p mamlakatlarda shunday ham bo'ladi. Ammo O'zbekistonimizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sur'ati ishga tushirilayotgan ulkan inshootlar bozor iqtisodi qonunlariga to'la amal qilinsa o'tish davri nisbatan qisqa vaqt bilan chegaralanishini ko'rsatib turibdi. Mashinasozlik, neft mahsulotlari, yengil sanoat, oziq-ovqat, mahalliy qayta ishlash sanoatlari, qurilish, paxtachilik, g'alla, qimmatbaho materiallar ishlab chiqarish sohalarida jiddiy yuksalish ko'zga tashlanayapti. Aholini ijtimoiy himoyalash, turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviyat va mafkura sohalarida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda.

Mamlakat hayotida ro'y berayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlardan maqsad odamlarga munosib turmush sharoitlari yaratishdir. Bu insonparvar jamiyatimizning mazmuni va maqsadidan kelib chiqadi. Bunga imkon darajada harakat qilinmoqda.

Milliy mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida odamlar taqdiri, ularning turmush farovonligi, ertangi kuni, baxt-saodati turganligining yorqin dalilidir. Biz tamomila yangi, adolatli jamiyat barpo etishga kirishayapmiz.

Taraqqiyot yo'limiz ham, ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan ko'pdan-ko'p ishlar ham, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, ko'rsatmalarning pirovard natijasi ham Inson manfaatlariga qaratilganligi jamiyatimiz xarakteri bilan bevosita bog'liq. Davlatimizning ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar yo'lidan qat'iy borayotganligi bevosita odamlar manfaatini ko'zlashning yorqin dalilidir. Bu izchil siyosatdir.

Respublika Prezidentining "Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz shu falsafaga uyg'un holda shakllanmoqda. Yangidan barpo etayotgan jamiyatimizning ijtimoiy - ma'naviy asoslarini belgilashda yuqoridagi g'oyalarga suyasak xato bo'lmaydi", - degan fikrlarida O'zbekistonning istiqboli uchun ma'naviy asoslar muhim o'rin egallashi aniq ko'rsatilgan.

Jamiyat - uning a'zolarining kamoloti natijasida takomillashadi. Islom falsafasida inson omili yuksak rutbada turadi. Inson o'z xulqining ham, jamiyat ma'naviyatining ham ijodkori, o'zining va zamondoshlarining ma'naviy sifatlari uchun javobgar.

Ma'naviyatning qay darajada ekanini muayyan shaxsning o'zigagina emas, balki o'zi yashayotgan jamiyat taraqqiyotiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar ekan, uni shakllantirishni o'z xoliga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Insonda Olloh bergan xulqiy sifatlar bilan, tarbiya yordamida shakllanadigan ma'naviy fazilatlar ham bo'ladiki, jamiyatning barcha ijtimoiy tizimlarida shu fazilatlar imkon qadar ezgu va mustahkam shakllanmog'i lozim.

Ma'naviyat - insonning insoniylik mohiyati, inson shaxsida tarkib topgan ijobiy fazilatlar majmui. Shaxsdagi ijobiy fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanadi. Shunday ekan, ular ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ma'naviyat insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar majmui, insonning zohiriy va botiniy qiyofasi. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga yetaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil.

Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir. U insonning umrguzaronlik mohiyati, faoliyatining tabiatini belgilab bergan va faoliyatida gavdalangan ijobiy, go'zal fazilatlar majmui. Ma'naviyatda inson qalbi, shuuri, aql-zakovati, tabiati, bilimi, madaniyati aks etadi. U bilish, tanish, ilm va madaniyatning kamol topish mazmuni, usul va vositalaridir.

Ma'naviyat va ma'rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bshladi. Ma'naviyat yo'q joyda ma'lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo'lmaydi, insonlar jamoasining birligi – jamiyat ham bo'lmaydi. Prezidentimiz Islom Karimov, “Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur”, deb ta'kidlagan fikr zamirida ana shunday falsafiy mazmun yashirin. Ma'naviyatning ahamiyatini ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak. Ma'naviyat – xalqning, millatning, davlatning kuch qudrati, buyuk kelajak sari yuksaltiruvchi mustahkam poydevoridir. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangani bejiz emas. Har qanday ishning, ijtimoiy taraqqiyotning me'mori ham, bunyodkori ham, bosh harakatlantiruvchi kuchi ham inson. Uning aql-zakovati va samarador mehnatisiz hech nima yaratilmaydi, vujudga kelmaydi. Respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar taqdiri pirovard natijada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni qay darajada yuksak saviyada tashkil qila bilish muhim hayotiy muammo. Chunki ma'naviy – ma'rifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan komil

insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, yetuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashiga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi, O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish hamda uni izchillik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifasidir. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksagligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisrblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi:

1. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyatda mavjud bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'rifiy sohalarni, ularni o'zaro bog'lab, uyg'unlashtirib, davlatning bir butun mustaqil sub'ekt sifatidagi maqomini ta'minlab turadi;

2. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy –siyosiy, madaniy huquqiy va ma'rifiy sohaslarini rivojlantirishdan ko'zlagan asosiy maqsadi insonni kamol toptirish, ehtiyojlarini qondirish, uni barkamollik darajasiga ko'tarishdan iboratdir. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksak zamonaviy talablar darajasida tashkil qilgandagina muayyan vazifalarni insonga xizmat qildirish mumkin bo'ladi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat me'mori, mezon va yetakchi omil rolini o'ynaydi.

3. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolarning davlat manfaatlarini birlashtiradi. Ma'naviyati va ma'rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi;

4. Ma'naviyat va ma'rifat milliy ong va milliy tuyg'u, milliy g'oyalarni shakllantiruvchi omildir. Bular o'z navbatida har bir millatning o'z-o'zini anglashiga, manfaatlar yagonaligini tushunishiga, kishilarda milliy g'urur, qadr-qimmatning mustahkam dunyoqarashga aylanishiga yordam beradi;

5. Ma'naviyat va ma'rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishiga yetaklaydi, shaxs, millat va davlatning tarqiqiyoti sari harakat qilishga da'vat etadi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat

shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi;

6. Ma'naviyat va ma'rifat aql-zakovat, salohiyat yuksakligining muhim mezonini va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma'naviy boyliklari darajasiga ko'taradi;

7. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruxiyatini shakllantiradi;

8. Ma'naviyat va ma'rifat kishilarni sub'ektiv, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik manfaatlari ehtirolarga berilishidan saqlaydi, shaxsiy va mahalliy manfaatlarni millat hamda Vatan manfaatlarga uyg'unlashtirish muhitini vujudga keltiradi, millatning umubashariy qadriyatlar sari intilishini kuchaytiradi;

9. Ma'naviyat va ma'rifat mamlakatda adolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga ko'taradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me'yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagi adolatli qadriyatlar shakllanishi mumkin bo'ladi;

10. Ma'naviyat va ma'rifat davlatning ichki hayotidagi muammolarni hal qilishning muhim omili bo'lishi bilan birga, u davlatning xalqaro hayotdagi obro' – e'tiborini oshiradi, uning katta imkoniyatlarga ega ekanligini va barqaror taraqqiy etayotganligini tasdiqlaydi. Bu o'z navbatida davlatning xalqaro hayotda harakat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

– Ma'naviyat – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o'zligini anglashi, milliy g'urur, milliy iftihar, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa an'analari xayrixohlik, diyonat, mehr-shavqat, poklik, halollik, vijdoniylik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat yo'li – bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, ahloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi.

Milliy til ma'naviyat va ma'rifatning yetakchi omili ekanini hisobga olib, davlat tomonidan qabul qilingan qarorning real hayotda bajarilishini ta'minlash;

- davlat tilini ishlab chiqarish, milliy ma'naviyatni tarkib qilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim, aloqa, transport, ommaviy axborot va boshqa davlat va nodavlat tizimida qo'llanishini ta'minlashni nazorat qilish;

- xorijiy mamlakatlar vakillari bilan bo'ladigan muloqotlar, shartnomalar, ma'lumotlar va hujjatlarda asosiy til sifatida davlat tilini qo'llash ustidan nazoratni kuchaytirish;

- davlat tilida ilmiy, badiiy va san'at asarlarini chop etishga e'tiborni kuchaytirish, xorijiy tillardan muxim ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga bog'liq bo'lgan asarlarni tarjima qilish, ta'lim tizimida davlat tilini boshqa millat vakillariga o'rgatishni takomillashtirish, uning ustidan nazorat qilish, davlat tilni o'rganishni hohlovchi har bir fuqaro uchun amaliy, yordam ko'rsatishni idoralar, vazirliklar va boshqa muassasalar rahbarlari zimmasiga yuklash;

- davlat tilini joriy qiluvchi komissiyalar faolini takomillashtirish, uning tarkibini qaytadan ko'rib chiqish va unga amaliy yordam berishda faollik ko'rsatuvchi kishilarni jalb qilish;

- ko'chalar, maydonlar, tashkilotlarga o'zbek millatining taqdirida buyuk o'rin tutgan tarixiy shaxslar, ulug' allomalar, taniqli olimlar, adabiyot, san'at, davlat va jamoat arboblari nomlarini berish bo'yicha qabul qilingan davlat qonunining bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish.

4. Fanning ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish-dagi yetakchi mavqeini, fan ahllarining mamlakat aql-zakovatining tayanch qismi hisobga olinib, ularning jamiyatdagi mavqe va maqomini qayta ko'rib chiqish;

- fanning fundamental sohalarini rivojlantirishda davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar bozor iqtisodiyoti talablari darajasidan orqada qolayotganligini e'tiborga olib, ularga tegishli moddiy yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha omili sifatida ilmiy tadqiqot ishlaridan tushayotgan mablag'larning asosiy qismini muayyan sohada ishlayotgan kadrlarning ehtiyojini qondirishga saqlash imkoniyatini vujudga keltirish, iqtidorli yosh kadrlarni tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratish;

- qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash, oziq-ovqat texnologiyasini rivojlantirishga qaratilgan fanning yangi yo'nalishlarini belgilash va takomillashtirish;

- ijtimoiy - gumanitar fanlar bo'yicha - milliy tarix, adabiyot, san'at, ma'naviy meros, qadriyatlar, an'analar, milliy ong, milliy g'urur, ruhiyat, erkin tafakkur, siyosat va huquqiy muammolarni har tomonlama chuqur va puxta o'rganish, tahlil qilish va ulardan kelib chiqadigan ilmiy xulosalarni hayotga tatbiq qilish orqali ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishni nazarda tutish;

- umummanfaatlarni uyg'unlashtiruvchi milliy taraqqiyot mafkurasini shakllantirish, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, qishloq aholisi ma'naviyati va ma'rifatini ko'tarish, yoshlarda vatanparvarlik, qonunlarga amal qilish, tuzumga hurmat ruhiyatini shakllantirishni ijtimoiy gumanitar fanlar ilmiy - tadqiqot ishlarining asosiy mavzusi sifatida belgilash.

5. Adabiyot va san'atning ma'naviyat va ma'rifatni shakllantirish va barkamol insonni tarbiyalashdagi muhim ahamiyatini nazarda tutib, uni rivojlantirishda:

- milliy qadrlarini ko'tarishga, uning ongiga mustaqillik va millatparvarlik tuyg'ularini singdirishga, millat oldida turgan muammolarni hal qilishda ularning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi asarlar yaratilishini adabiyot va san'atning bosh talablari sifatida belgilanib, ijodkorlikning hamjihatligini vujudga keltirish, mamlakat va millat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi asarlar yaratishga yo'naltirish;

- milliy san'at turlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish, bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bilan san'atning jahonda tan olingan janrlarini keng targ'ib qilish, yoshlar ongiga, millatimiz ma'naviy - madaniy manfaatlariga zid bo'lgan asarlarning targ'ib qilinishiga yo'l qo'ymaslik.

6. Mafkuraning millat, davlat va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash va himoya qilishdagi ahamiyatini hisobga olib, uni yuksak darajada rivojlantirish va takomillashtirishda:

- uni millatning milliy, ruhiy, aqliy va ma'naviy kuch-qudrati va imtiyozlarini o'zida mujassamlashtiruvchi ilhombaxsh mafkuraga yetkazish:

- mafkuraning ma'naviyat va ma'rifat tayanchi o'laroq, iqtisodiy - siyosiy tafakkurni shakllantirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va fuqaro faolligini ta'minlashdagi mavqeini oshirib borish.

7. Ommaviy axborot vositalarining ma'naviyat va ma'rifat ning targ'ib - tashviq qilish, jamiyat va hayot muammolarini o'rtaga tashlashdagi tezkorlik va ommaviylik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda:

- ularning saviyasini ko'tarish, chinakam ma'noda to'rtinchi hokimiyat darajasiga yetkazish;

- gazeta, jurnal, radio eshittirishlar faoliyatini takomillashtirish, teleko'rsatuvlarda hayotiy muammolarni ko'tarish muhitini vujudga keltirish, ayniqsa bag'ishlangan ko'rsatuvlarda milliy qadriyatlar, zamonaviy an'analarga keng e'tibor qaratish;

- respublika radio va televideniya tizimida ishlayotgan kadrlarning saviyasini ko'tarish, bu sohada milliy tushunchalari shakllangan yuqori malakali kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga, tajriba almashishga yuborish.

UMUMIY XULOSALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Komil insonni tarbiyalash masalasi, ayniqsa hozirgi mustaqillik sharoitida dolzarb bo'lib turibdi. Buning boisi shuki, mustabid tuzumdan bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o'tilayotgan davrda ushbu masala yanada keskinroq qo'yilmoqda. Kishilararo munosabatda ba'zi qadriyatlarning qadrsizlana boshlaganligi, yoshlar orasida giyohvandlik, firibgarlik, ishyoqmaslik, tekinxo'rlik, o'g'rilik va boshqa yaramas illatlarning tez-tez sodir

bo‘lib turishi barkamol avlodni tarbiyalashga diqqat-e’tiborni qaratishni taqozo etmoqda.

2. Komil inson g‘oyasi o‘z mohiyat-e’tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o‘zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni to‘plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning uchun komil inson masalasi o‘tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi.

3. Komil insonni voyaga yetkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo‘lib kelgan. U to‘g‘risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Komillik to‘g‘risidagi fikrlarning evolyutsiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo‘lishi tuzumning xarakteri, ishlab chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-fan va madaniyatning rivojiga bog‘liq bo‘lgan.

4. Talabani komil inson sifatida shakllantirish ishlarining ta’lim muhitini insonparvarlashtirish bilan chambarchas bog‘liqligi va aloqadorligi masalasi o‘quv jarayonining butun mazmuni va mohiyatini belgilaydigan muhim vazifadir. Ta’limda tarbiyaviy ta’sirning muhim xususiyati uning umuminsoniy madaniyatning asosiy tamoyillari va qadriyatlari bilan aloqadorligidadir.

5. Komil inson – o‘zida ma’naviy-axloqiy hislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o‘zligini va o‘z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma’rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, yuksak iste’dodli va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan ma’naviy jihatdan yetuk, axloqan pok, hayot go‘zalliklarini his eta oladigan ijodkor shaxsdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 1998. – 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
4. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi, 2010 yil 29 yanvar.
5. Karimov I. A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 319 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. -176 b.

7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Pedagogika. prof. A.Munavvarov tahriri ostida, o'quv qo'llanma. –T: "O'qituvchi", 1996.
9. Mahkamov U.I. Ta'lim oluvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. - T.: FAN, 1995.
10. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. "Turon-iqbol nashriyoti", Toshkent, 2006.
11. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T. 1993.
12. Ismailova Z.I. Tarbiyaviy ish metodikasi. T. 2003.
13. Internet ma'lumotlari. ZIYONET, PEDAGOG.UZ, KUTUBXONA.UZ.